MOLIYAVIY NATIJALAR HISOBI: MILLIY VA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Qo'ziyeva Maftuna Otabek qizi
Samarqand iqtisodiyot va servis institute "Buxgalteriya hisobi" kafedrasi assistenti
maftunaotabekovna46@gmail.com
Abdullayev Kamronbek Zubaydulla o'g'li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi
kamron01@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23951816

Annotatsiya: Maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy natijalar hisobini yuritishning nazariy va amaliy masalalari moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o'tish sharoitida tadqiq etilgan. Buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS) hamda 1-son MHXS (IAS 1), 15-son MHXS (IFRS 15), 12-son MHXS (IAS 12) va 18-son MHXS (IFRS 18) talablari qiyosiy tahlil qilinib, daromad va xarajatlarni tan olish, tasniflash hamda "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot"ni shakllantirish tartibidagi o'xshash va farqli jihatlar ochib berilgan. 9000-guruh hisobvaraqlarida operatsiyalarni aks ettirish va "Yakuniy moliyaviy natija" hisobvarag'ini yopishning shartli misoli keltirilgan. Milliy hisob amaliyotini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy natija, daromad, xarajat, foyda, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, MHXS, BHMS, yalpi daromad, hisob siyosati.

Аннотация: В статье исследуются теоретические и практические вопросы учёта финансовых результатов на хозяйствующих субъектах в условиях перехода Республики Узбекистан на Международные стандарты финансовой отчётности (МСФО). На основе сравнительного анализа национальных стандартов бухгалтерского учёта (НСБУ) и требований МСФО (IAS) 1, МСФО (IFRS) 15, МСФО (IAS) 12 и МСФО (IFRS) 18 раскрыты сходства и различия в порядке признания и классификации доходов и расходов, а также формирования отчёта о финансовых результатах. Приведён условный пример отражения операций на счетах группы 9000 и закрытия счёта «Конечный финансовый результат». Разработаны практические предложения по сближению национальной учётной практики с международными стандартами.

Ключевые слова: финансовый результат, доходы, расходы, прибыль, отчёт о финансовых результатах, МСФО, НСБУ, совокупный доход, учётная политика.

Abstract: The article examines theoretical and practical issues of accounting for financial results in business entities in the context of Uzbekistan's transition to International Financial Reporting Standards (IFRS). Based on a comparative analysis of the National Accounting Standards (NAS) and the requirements of IAS 1, IFRS 15, IAS 12 and IFRS 18, the study identifies similarities and differences in the recognition and classification of income and expenses and in the preparation of the statement of financial results. An illustrative example of recording transactions on the 9000-series accounts and

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

closing the "Final financial result" account is provided. Practical proposals are developed to converge national accounting practice with international standards.

Keywords: financial result, income, expenses, profit, statement of financial results, IFRS, national accounting standards, comprehensive income, accounting policy.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyati yakuniy moliyaviy natija — foyda yoki zarar bilan baholanadi. Aynan moliyaviy natijalar korxonaning raqobatbardoshligini, to'lov qobiliyatini, investitsion jozibadorligini va rivojlanish imkoniyatlarini belgilaydi. Shu sababli moliyaviy natijalar hisobi buxgalteriya hisobining markaziy bo'limlaridan biri hisoblanadi, chunki unda korxona faoliyatining barcha jihatlari — ishlab chiqarish, sotish, boshqaruv, investitsiya va moliyalashtirish operatsiyalari — yakuniy ko'rsatkichda umumlashadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi 4611-son qarori [1] moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishni jadallashtirishni, xorijiy investorlarni ishonchli va taqqoslanuvchan axborot bilan ta'minlashni asosiy vazifa qilib belgiladi. 2020-yil 13-apreldagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi yangi tahrirdagi Qonun [2] esa MHXSni qo'llashning huquqiy asoslarini mustahkamladi. Biroq, MHXSga o'tish jarayoni milliy standartlar bo'yicha shakllangan hisob tizimi bilan xalqaro talablar o'rtasidagi metodologik farqlarni bartaraf etishni, ayniqsa moliyaviy natijalarni aniqlash va hisobotda taqdim etish tartibini qayta ko'rib chiqishni talab etadi.

Tadqiqotning **maqsadi** — moliyaviy natijalar hisobining milliy va xalqaro amaliyotini qiyosiy o'rganish, mavjud farqlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalar** belgilandi: moliyaviy natijalarning iqtisodiy mohiyati va tarkibini ochib berish; BHMS bo'yicha moliyaviy natijalarni hisobga olish tartibini tahlil qilish; MHXS bo'yicha daromad va xarajatlarni tan olish hamda hisobotda taqdim etish talablarini o'rganish; ikki tizimni qiyoslash va taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy natijalar hisobi masalalari milliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan. Milliy olimlardan D.E. Norbekov va I.K. Ochilov moliyaviy hisobotni MHXS asosida tuzish tartibini, jumladan, foyda yoki zarar to'g'risidagi hisobotda xarajatlarni xarakteri yoki funksiyasi bo'yicha tasniflash zarurligini asoslab berganlar [13]. A.A. Karimov va boshqalarning darsligida MHXSning mantiqiy buxgalteriya hisobi tamoyillariga tayanishi va asosiy maqsadi korxona faoliyati to'g'risida haqqoniy axborot taqdim etish ekanligi ta'kidlanadi [14].

Sh. Muzrapovaning ishida O'zbekistonda moliyaviy hisobotni MHXS asosida tuzishning amaliy tartibi va o'tish davridagi muammolar ko'rib chiqilgan [15]. I. Ismanov va B. Axmadaliyev xalqaro hisob tizimlarining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilib, boshqa yalpi daromad tarkibiga kiruvchi moddalarni sanab o'tganlar [16]. Xorijiy adabiyotlarda D. Kieso, J. Weygandt va T. Warfield [17], shuningdek J. Weygandt, P. Kimmel va D. Kieso [18] daromad va xarajatlarni tan olish, foyda ko'rsatkichlarining tuzilishi va hisobotda taqdim etilishini MHXS nuqtayi nazaridan batafsil bayon etganlar. Rus tilidagi adabiyotlardan V.V. Kovalevning moliyaviy tahlilga bag'ishlangan asarida [19] va N.E. Jiyanovaning maqolasida [20] foyda ko'rsatkichlari hamda moliyaviy risklar tahlili yoritilgan.

Mavjud tadqiqotlarni inobatga olgan holda ta'kidlash lozimki, moliyaviy natijalar hisobining milliy va xalqaro modellari o'rtasidagi farqlar, xususan, 2027-yildan kuchga kiruvchi 18-son MHXS (IFRS 18)

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

talablari fonida, yetarli darajada tizimli o‘rganilmagan. Mazkur maqola shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, tizimli yondashuv, qiyosiy va tarkibiy tahlil, induksiya va deduksiya, shuningdek, guruhlash usullaridan foydalanildi. Axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom [3], Moliya vazirligining me’yoriy hujjatlari [4–7], Xalqaro buxgalteriya standartlari kengashining (IASB) standartlari [8–12], darslik va ilmiy maqolalar tashkil etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Moliyaviy natijalarning mohiyati va tarkibi

Moliyaviy natija — korxonaning hisobot davridagi faoliyati yakunini ifodalovchi daromadlar va xarajatlar o‘rtasidagi farq bo‘lib, u foyda yoki zarar shaklida namoyon bo‘ladi. Daromadlar iqtisodiy naflarning oshishini, xarajatlar esa uning kamayishini bildiradi va ular xususiy kapitalning o‘zgarishiga olib keladi (mulkdorlar bilan bog‘liq operatsiyalar bundan mustasno) [12]. Daromad va xarajatlarni tan olish hisobning hisoblash (kelib chiqish) metodiga asoslanadi: ular pul mablag‘lari harakatidan qat’i nazar, tegishli davrga tegishli bo‘lgan paytda hisobga olinadi.

Milliy amaliyotda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi Nizom [3] hamda BHMS bilan tartibga solinadi. Unga ko‘ra, moliyaviy natijalar bir necha bosqichda aniqlanadi: mahsulot sotishdan sof tushum va sotilgan mahsulot tannarxi o‘rtasidagi farq sifatida yalpi foyda; undan davr xarajatlarini (sotish, ma’muriy va boshqa operatsion xarajatlar) ayirib, boshqa operatsion daromadlarni qo‘shgan holda asosiy faoliyat foydasi; moliyaviy faoliyat bo‘yicha daromad va xarajatlarni hisobga olgan holda umumxo‘jalik faoliyati foydasi; foyda solig‘ini to‘lashgacha foyda va nihoyat, hisobot davrining sof foydasi (zarari).

2. BHMS bo‘yicha moliyaviy natijalarni hisobga olish tartibi

BHMS bo‘yicha moliyaviy natijalar hisobi Hisobvaraqlar rejasining [7] 9000-guruh hisobvaraqlarida yuritiladi. Hisobot davri davomida daromad va xarajatlar tegishli hisobvaraqlarda to‘planadi, davr oxirida esa 9910 “Yakuniy moliyaviy natija” hisobvarag‘iga yopiladi, so‘ngra aniqlangan natija 8710 “Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)” hisobvarag‘iga o‘tkaziladi. Asosiy hisobvaraqlar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Moliyaviy natijalarni shakllantirishda foydalaniladigan asosiy hisobvaraqlar (BHMS)

Hisobvaraq	Nomi	Vazifasi
9010	Tayyor mahsulot sotishdan daromadlar	Asosiy faoliyatdan tushumni hisobga olish
9110	Sotilgan tayyor mahsulot tannarxi	Sotilgan mahsulot tannarxini aks ettirish
9410	Sotish xarajatlari	Davr xarajatlari tarkibida
9420	Ma’muriy xarajatlar	Davr xarajatlari tarkibida
9430	Boshqa operatsion xarajatlar	Asosiy faoliyatga bevosita bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Hisobvaraq	Nomi	Vazifasi
9810	Foyda solig‘i bo‘yicha xarajatlar	Joriy foyda solig‘ini hisobga olish
9910	Yakuniy moliyaviy natija	Davr oxirida daromad va xarajatlarni yopish
8710	Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)	Sof foydani (zararni) jamlash

Manba: mualliflar tomonidan Hisobvaraqlar rejasi [7] asosida tayyorlangan.

Moliya vazirligining 2002-yil 7-fevraldagi 31-son buyrug‘i [4] bilan tasdiqlangan ko‘rsatmalarga binoan, korxonalar “Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot”ni (2-son shakl) tuzadi. Mazkur hisobotda xarajatlar asosan maqsadi (funksiyasi) bo‘yicha — tannarx, sotish, ma’muriy va boshqa operatsion xarajatlar tarzida guruhlanadi. Shu bilan birga, 3-son BHMS [6] hisobotning tuzilishi va unda ko‘rsatiladigan axborotga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi, daromadlarni tan olish esa 2-son BHMS [5] bilan tartibga solinadi.

3. MHXS bo‘yicha moliyaviy natijalarni taqdim etish talablari

1-son MHXS (IAS 1) [8] ga muvofiq korxona foyda yoki zarar va boshqa yalpi daromad to‘g‘risidagi hisobotni ikki usuldan birida taqdim etadi: yagona hisobot ko‘rinishida yoki ikkita alohida hisobot — foyda yoki zarar to‘g‘risidagi hisobot hamda foyda yoki zarardan boshlanuvchi yalpi daromad to‘g‘risidagi hisobot sifatida. Standart hisobotning aniq shaklini belgilamaydi, biroq minimal moddalar ro‘yxatini — tushum, moliyalashtirish xarajatlari, ulushli qatnashish usulida hisobga olinadigan uyushgan va hamkor korxonalar foyda yoki zararidagi ulush, soliq xarajatlari, to‘xtatilgan faoliyat natijasi va boshqa yalpi daromad — belgilaydi.

Tushumni tan olish 15-son MHXS (IFRS 15) [9] bo‘yicha besh bosqichli modelga asoslanadi: mijoz bilan shartnomani aniqlash; shartnomadagi bajarilishi lozim bo‘lgan majburiyatlarni aniqlash; operatsiya narxini aniqlash; narxni majburiyatlar o‘rtasida taqsimlash; majburiyat bajarilganda (yoki bajarilgan sari) tushumni tan olish. Milliy amaliyotda tushum odatda tovar yoki mahsulotga egalik huquqi va xavf-xatarlar o‘tgan paytda tan olinadi [5], bu esa ko‘p elementli shartnomalar, chegirmalar va o‘zgaruvchan to‘lovlar mavjud bo‘lganda sezilarli farqlarga olib kelishi mumkin.

Xarajatlar tahlili uchun MHXS ikki yondashuvdan birini qo‘llashni tavsiya etadi: xarajatlarni xarakteri bo‘yicha (amortizatsiya, ish haqi, xomashyo, transport xarajatlari) yoki funksiyasi bo‘yicha (sotilgan mahsulot tannarxi, sotish, ma’muriy xarajatlar) tasniflash. Funksiya bo‘yicha tasniflashda korxona xarajatlarning xarakteri to‘g‘risida qo‘shimcha ma’lumotni, jumladan, amortizatsiya va xodimlarga to‘lovlarni izohlarda ochib berishi shart [8]. Bu farq muhim, chunki milliy hisobotda xarajatlar faqat maqsadi bo‘yicha guruhlanadi.

Foyda solig‘i bo‘yicha xarajatlar 12-son MHXS (IAS 12) [10] ga muvofiq joriy va kechiktirilgan soliqlardan iborat bo‘ladi. Kechiktirilgan soliq aktivlari va majburiyatlari buxgalteriya va soliq hisobidagi vaqtinchalik farqlardan kelib chiqadi. BHMSda esa bu tartib MHXSdagidek keng yoritilmagan va amaliyotda asosan joriy soliq hisobga olinadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, 2024-yil aprel oyida IASB tomonidan chiqarilgan 18-son MHXS (IFRS 18) [11] 2027-yil 1-yanvardan boshlanuvchi hisobot davrlaridan boshlab 1-son MHXSni almashtiradi. Yangi standart foyda yoki zarar to‘g‘risidagi hisobotdagi daromad va xarajatlarni uch asosiy toifaga — operatsion, investitsion va moliyalashtirish toifalariga ajratishni, shuningdek

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

"operatsion foyda" va "moliyalashtirish hamda daromad solig'igacha foyda" oraliq jami ko'rsatkichlarini majburiy qiladi. Bundan tashqari, rahbariyat tomonidan aniqlangan samaradorlik ko'rsatkichlari izohlarda oshkor etilishi va asoslanishi talab qilinadi. Bu o'zgarishlar moliyaviy natijalar hisobotini turli korxonalar o'rtasida yanada taqqoslanuvchan qiladi.

4. Milliy va xalqaro yondashuvlarning qiyosiy tahlili

Qiyosiy tahlil natijalari 2-jadvalda umumlashtirilgan. Ko'rinib turibdiki, ikki tizim o'rtasidagi eng muhim farqlar hisobotning nomi va tuzilishi, xarajatlarni tasniflash, tushumni tan olish, boshqa yalpi daromadni aks ettirish hamda konsolidatsiya bilan bog'liq.

2-jadval

Moliyaviy natijalar hisobining BHMS va MHXS bo'yicha qiyosiy tahlili

Mezon	BHMS (milliy amaliyot)	MHXS (xalqaro amaliyot)
Hisobot nomi	Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (2-son shakl)	Foyda yoki zarar va boshqa yalpi daromad to'g'risidagi hisobot
Me'yoriy asos	3-son BHMS, 31-son buyruq, Nizom (54-son qaror)	1-son MHXS (IAS 1); 2027-yildan 18-son MHXS (IFRS 18)
Shakl	Hisobot shakli tasdiqlangan va qat'iy belgilangan	Aniq shakl belgilanmagan, minimal moddalar ro'yxati bor
Xarajatlarni tasniflash	Faqat maqsadi (funksiyasi) bo'yicha	Xarakteri yoki funksiyasi bo'yicha; funksiya bo'yicha bo'lsa, xarakter izohlarda
Tushumni tan olish	2-son BHMS: egalik huquqi va xavf-xatarlar o'tishi	15-son MHXS: besh bosqichli model, majburiyatni bajarish
Boshqa yalpi daromad	Alohida ko'rsatilmaydi; qayta baholash to'g'ridan-to'g'ri kapitalda	Majburiy: qayta baholash, aktuar foyda/zarar, valyuta farqlari va boshqalar
Soliq xarajatlari	Asosan joriy foyda solig'i	Joriy va kechiktirilgan soliq (12-son MHXS)
Ulushli qatnashish	Mavjud emas; konsolidatsiya cheklangan	Uyushgan va hamkor korxonalar ulushi; nazorat qilinmaydigan ulush
To'xtatilgan faoliyat	Alohida ko'rsatilmaydi	Soliqdan keyingi natija alohida satrda
Toifalarga ajratish	Asosiy, moliyaviy, favqulodda faoliyat	Operatsion, investitsion, moliyalashtirish (18-son MHXS)

Manba: mualliflar tomonidan [3–12] asosida tayyorlangan.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, milliy hisobotdagi "Sotilgan mahsulot tannarxi", "Sotish xarajatlari" va "Ma'muriy xarajatlar" moddalari xalqaro amaliyotdagi funksiya bo'yicha tasniflangan xarajatlarga mos keladi, "Moliyalashtirish xarajatlari" esa mutlaqo boshqa mazmunga ega — u asosan foiz xarajatlarini ifodalaydi va ishlab chiqarish yoki boshqaruv xarajatlari bilan aralashtirilmasligi lozim. Boshqa yalpi daromad, uyushgan va hamkor korxonalar ulushi hamda nazorat qilinmaydigan ulush moddalari milliy

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

hisobotda deyarli mavjud emas. Bu, o‘z navbatida, tashkilotning konsolidatsiyalangan emas, balki alohida hisobot shakllantirishiga olib keladi.

5. Amaliy misol: moliyaviy natijalarni aniqlash

Moliyaviy natijalarni hisobga olish va hisobotda aks ettirish tartibini ko‘rsatish uchun shartli misol keltiramiz. Faraz qilaylik, ishlab chiqarish korxonasi hisobot yili uchun quyidagi ma’lumotlarga ega (mln so‘mda, QQSsiz): mahsulot sotishdan sof tushum — 1 200; sotilgan mahsulot tannarxi — 780; sotish xarajatlari — 60; ma’muriy xarajatlar — 90; boshqa operatsion xarajatlar — 20; boshqa operatsion daromadlar — 15; moliyaviy daromadlar — 10; moliyaviy xarajatlar (foizlar) — 35. Foyda solig‘i stavkasi shartli ravishda 15 foiz deb qabul qilindi. Natijalar 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot (shartli misol, mln so‘m)

Ko‘rsatkich	Summa
Mahsulot sotishdan sof tushum	1 200
Sotilgan mahsulot tannarxi	(780)
Yalpi foyda	**420**
Sotish xarajatlari	(60)
Ma’muriy xarajatlar	(90)
Boshqa operatsion xarajatlar	(20)
Boshqa operatsion daromadlar	15
Asosiy faoliyat foydasi	**265**
Moliyaviy daromadlar	10
Moliyaviy xarajatlar	(35)
Foyda solig‘igacha foyda	**240**
Foyda solig‘i (15 %)	(36)
Hisobot davrining sof foydasi	**204**

Manba: mualliflar tomonidan shartli ma’lumotlar asosida tayyorlangan.

Hisob registrlarida operatsiyalar 4-jadvaldagi yozuvlar bilan aks ettiriladi. Daromad va xarajatlar hisobvaraqlari yil oxirida 9910 “Yakuniy moliyaviy natija” hisobvarag‘iga yopiladi: kredit aylanmasi 1 225 (1 200 + 15 + 10), debet aylanmasi 1 021 (780 + 60 + 90 + 20 + 35 + 36) bo‘lib, farq — 204 mln so‘m sof foyda sifatida 8710 hisobvarag‘iga o‘tkaziladi.

4-jadval

Moliyaviy natijalarni hisobga olish bo‘yicha buxgalteriya yozuvlari (mln so‘m)

№	Operatsiya mazmuni	Debet	Kredit	Summa
1	Mahsulot sotishdan tushum aks ettirildi	4010	9010	1 200

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

№	Operatsiya mazmuni	Debet	Kredit	Summa
2	Sotilgan mahsulot tannarxi hisobdan chiqarildi	9110	2810	780
3	Sotish, ma'muriy va boshqa operatsion xarajatlar hisobga olindi	9410, 9420, 9430	Tegishli hisobvaraqlar	170
4	Foyda solig'i hisoblandi	9810	6410	36
5	Tushum yakuniy natijaga yopildi	9010	9910	1 200
6	Boshqa operatsion va moliyaviy daromadlar yopildi	Daromad hisobvaraqlari	9910	25
7	Tannarx va xarajatlar yakuniy natijaga yopildi	9910	9110, 9410, 9420, 9430, 9810 va moliyaviy xarajatlar	1 021
8	Sof foyda taqsimlanmagan foydaga o'tkazildi	9910	8710	204

Manba: mualliflar tomonidan tayyorlangan. Hisobvaraq raqamlari Hisobvaraqlar rejasiga [7] muvofiq.

MHXS bo'yicha xuddi shu ma'lumotlar asosida tuziladigan hisobot yalpi daromadning tarkibiy qismlarini ham o'z ichiga oladi. Masalan, korxonada asosiy vositalar qayta baholangan bo'lsa, qayta baholash natijasi 16-son MHXS bo'yicha foyda yoki zararda emas, balki boshqa yalpi daromadda aks ettiriladi va jami yalpi daromad ko'rsatkichiga ta'sir qiladi. Milliy hisobotda esa bunday natija xususiy kapital tarkibida aks etadi, binobarin, foyda yoki zarar to'g'risidagi hisobotda ko'rinmaydi.

6. Aniqlangan muammolar

Tahlil jarayonida moliyaviy natijalar hisobi bo'yicha quyidagi asosiy muammolar aniqlandi: birinchidan, milliy hisobot shakli qat'iy tasdiqlangan bo'lib, xalqaro amaliyotdagi tushum, boshqa yalpi daromad va to'xtatilgan faoliyat bo'yicha axborotni to'liq aks ettirmaydi; ikkinchidan, xarajatlar faqat funksiyasi bo'yicha guruhlanganligi sababli ularning xarakteri bo'yicha tahlil qilish imkoniyati cheklangan; uchinchidan, buxgalteriya va soliq hisobidagi foyda o'rtasidagi farqlar kechiktirilgan soliqlar mexanizmi orqali tizimli ravishda hisobga olinmaydi; to'rtinchidan, ayrim korxonalarda buxgalterlarning MHXS bo'yicha malakasi yetarli emas, bu esa kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishni taqozo etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, moliyaviy natijalar hisobi xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining samaradorligini baholashning asosiy vositasi bo'lib, uning milliy va xalqaro modellari o'rtasida hisobot tuzilishi, xarajatlarni tasniflash, tushumni tan olish va yalpi daromadni aks ettirishda sezilarli farqlar mavjud. Ushbu farqlarni bartaraf etish va milliy amaliyotni MHXSga yaqinlashtirish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

1) "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" shaklini yalpi daromad to'g'risidagi hisobot talablarini hisobga olgan holda kengaytirish, unga boshqa yalpi daromad, to'xtatilgan faoliyat natijasi va hisobot davrining jami yalpi daromadi satrlarini kiritish;

2) xarajatlarni maqsadi bo'yicha tasniflash bilan bir qatorda ularning xarakteri (amortizatsiya, ish haqi, xomashyo va boshqalar) bo'yicha qo'shimcha ma'lumotni hisobot izohlarida oshkor etishni majburiy qilish;

3) tushumni tan olishda 15-son MHXSning besh bosqichli modelini BHMSga bosqichma-bosqich joriy etish, xususan, ko'p elementli shartnomalar va o'zgaruvchan to'lovlar bo'yicha aniq metodik tavsiyalar ishlab chiqish;

4) buxgalteriya va soliq hisobidagi vaqtinchalik farqlarni hisobga olish uchun kechiktirilgan soliq aktivlari va majburiyatlarini tan olish tartibini (12-son MHXS) joriy etish;

5) 2027-yildan kuchga kiruvchi 18-son MHXS talablarini inobatga olib, hisobotda operatsion, investitsion va moliyalashtirish toifalarini ajratish hamda rahbariyat tomonidan aniqlangan samaradorlik ko'rsatkichlarini oshkor etish tartibini ishlab chiqish;

6) buxgalter va auditorlarning malakasini oshirish, oliy ta'lim muassasalarida MHXS bo'yicha o'quv dasturlarini yangilash va amaliy mashg'ulotlar ulushini ko'paytirish.

Taklif etilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi moliyaviy hisobotlarning xalqaro taqqoslanuvchanligini oshiradi, xorijiy investorlar ishonchini mustahkamlaydi va korxonalarda boshqaruv qarorlarini asoslash sifatini yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahrir), 2020-yil 13-aprel, O'RQ-613-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom".
4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002-yil 7-fevraldagi 31-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish bo'yicha ko'rsatmalar".
5. 2-son BHMS "Asosiy faoliyatdan daromadlar". O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.
6. 3-son BHMS "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot". O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.
7. 21-son BHMS "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini hisobga olishning hisobvaraqlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma". O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.
8. IAS 1 Presentation of Financial Statements. – London: IFRS Foundation.
9. IFRS 15 Revenue from Contracts with Customers. – London: IFRS Foundation, 2014.
10. IAS 12 Income Taxes. – London: IFRS Foundation.
11. IFRS 18 Presentation and Disclosure in Financial Statements. – London: IFRS Foundation, 2024.
12. Conceptual Framework for Financial Reporting. – London: IFRS Foundation, 2018.
13. Norbekov D.E., Ochilov I.K. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: o'quv-uslubiy majmua. – Toshkent, 2019. – 416 b.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

14. Karimov A.A., Ibragimov A.K., Rizaev N.K., Imamova N.M. Moliyaviy hisobot standartlari: darslik. – T.: "Moliya", 2021. – 310 b.
15. Muzrapova Sh. Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlari asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish tartibi // "Tafakkur manzili", 2022, may.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.